



SURROGAT ONALIK SHARTNOMASI: ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA O'ZBEKISTONDA TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

D.I.Babajanova

Fuqarolik huquqi kafedrası professori v.b., y.f.d.

bdinka1985@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18412184>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 27-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 29-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

surrogat onalik, shartnoma, reproduktiv texnologiyalar, oila huquqi, genetik ota-ona, fuqarolik huquqi, bola manfaatları, qonunchilik isloxoti, huquqiy tartibga solish, nizolar hal qilish.

ABSTRACT

Maqolada surrogat onalik shartnomasining huquqiy tabiati, zamonaviy amaliyotdagi muammolar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida tartibga solishning mavjud holati tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida surrogat onalik institutining xorijiy mamlakatlardagi tajribasi, shartnoma shartlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari, nizoli vaziyatlarni hal qilish mexanizmlari o'rganilgan. Muallif O'zbekistonda surrogat onalik shartnomasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining yetishmaskigi, amaliyotda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlagan. Maqolada surrogat onalik shartnomasining fuqarolik-huquqiy tomonlari, oila huquqi bilan bog'liqligi, shuningdek, axloqiy-etik masalalar muhokama qilingan. Tadqiqot natijalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan

Zamonaviy tibbiyot va reproduktiv texnologiyalarning rivojlanishi natijasida surrogat onalik instituti ko'plab oilalarga farzand ko'rishning imkoniyatini yaratdi. Surrogat onalik shartnomasi fuqarolik huquqining nisbatan yangi va murakkab instituti bo'lib, u genetik ota-onalar, surrogat ona va tug'iladigan bolaning manfaatlarini muvozanatlashni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasida surrogat onalik amaliyotida qo'llanilsa-da, uning huquqiy tartibga solinishi etarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud qonunchilik bo'shliqlari nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga, tomonlarning huquqlarini himoya qilishda qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Ushbu masalaning dolzarbligi surrogat onalikka bo'lgan ehtiyojning ortishi va xalqaro amaliyotdagi rivojlanishlar bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi surrogat onalik shartnomasining huquqiy tabiatini ochib berish, amaliyotdagi muammolarni aniqlash va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Adabiyotlar tahlili

Surrogat onalik masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Rossiyalik olimlar M.N. Maleina, A.A. Pestrikova surrogat onalikning fuqarolik-huquqiy

aspektlarini tahlil qilganlar va shu o'rinda o'z qarashlari, yondashuvlarini ushbu yo'nalishda berib o'tganlar. Amerika tadqiqotchilari L. Andrews, D. Spar surrogat onalik shartnomalarining axloqiy-huquqiy muammolarini ko'rib chiqqanlar.

O'zbekistonda Sh.Z. Ergashev, M.X. Rustambekov oila huquqi va reproduktiv texnologiyalar masalalarini tadqiq etganlar. Biroq, surrogat onalik shartnomalarining maxsus tadqiqoti ytarli emas.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi ko'rsatadiki, surrogat onalikni tartibga solishda ikki yo'nalish mavjud: liberal (AQShning ayrim shtatlari, Ukraina) va cheklovchi (Germaniya, Frantsiya) yondashuvlar. Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya o'rtacha pozitsiyani egallaydi, tijorat emas surrogat onalikka ruxsat beradi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan:

- Qiyosiy-huquqiy tahlil metodi – xorijiy mamlakatlar qonunchiligini o'rganish uchun;
- Tizimli tahlil metodi – surrogat onalik shartnomasining elementlarini tekshirishda;
- Sotsiologik metod – amaliyot materiallarini o'rganishda;
- Normativ-huquqiy metod – milliy qonunchilikni tahlil qilishda;
- Logik metod – xulocalar chiqarishda.

Natijalar

Surrogat onalik shartnomasining huquqiy tabiati

Tadqiqot natijalari surrogat onalik shartnomasining quyidagi xususiyatlarini aniqladi:

1. Shartnoma turiga oid: Surrogat onalik shartnomasi o'ziga xos shartnoma bo'lib, u xizmat ko'rsatish shartnomasi elementlarini o'z ichiga oladi, lekin unga to'liq tenglashtirish bo'lmaydi.

2. Tomonlarning tarkibi:

Birinchi tomon: genetik ota-onalar (buyurtma beruvchi)

Ikkinchi tomon: surrogat ona (ijrochi)

Uchinchi tomon: tibbiy muassasa (ko'p hollarda)

1. Shartnoma mavzusi: Bolani surrogat ona ko'tarib yurishi va tug'ish xizmatining ko'rsatilishi, tug'ilgan bolani genetik ota-onalarga topshirishdan iborat.

Amaliyotdagi asosiy muammolar

Garchi hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi hududida surrogat onalik natijasida farzand ko'rish hollari kuzatilsada ammo, ushbu turdagi munosabatlarni tartibga soluvchi aniq bir qonun hujjati ishlab chiqilib ommaga taqdim etilmagan. Qonunchilikda ushbu bo'shliqning mavjudligi surrogat onalik asnosida ijtimoiy munosabatlarga kirishgan tomonlarning huquq va majburiyatlari noaniqligi, nizolar yuzaga kelganda ularni qonuniy hal etish imkonsiz bo'lib qolishiga olib keladi. O'z navbatida ushbu turdagi munosabatlarni qonun doirasida rasmiylashtirish aholi ma'lum qatlami tomonidan ota-onalik va bolaning huquqlariga zid deb hisoblaydi. Ayni jamoat fikrining salbiy tus olishi ham ushbu munosabatlarni qonunchilik hujjatlari qabul qilish orqali tartibga solishni birmuncha qiyinlashtirmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Albatta, surrogat onalik shartnomalarini Fuqarolik kodeksi – shartnoma huquqi umumiy normalari o'z ichiga olgan 353-385-moddalar asosida tartibga solinishi zarur deb fikr bildiruvchi huquqsguboslar ham yo'q emas. Ammo, ushbu masalaga diqqat bilan e'tibor qaratar ekanmiz surrogat onalik shartnomasi oddiy xizmat ko'rsatish shartnomasidan xizmat predmeti nuqtai-nazaridan keskin farq qilishini ko'rishimiz mumkin. Surrogat onalik shartnomasi

ma'lum xizmatni bajarishni o'z ichiga olishi mumkin ammo, ushbu xizmat natijasi bir shaxsni boshqa bir shaxsga topshirish majburiyatini ham yuklaydi va aynan manashu natija doimiy xizmat ko'rsatish shartnomalaridan olinadigan natijadan keskin farq qilishi surrogat onalik shartnomalari alohida qonun doirasida amalga oshirilishi kerakligidan ishora beradi.

Yuqorida takidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi shartnomalar bo'yicha umumiy qoidalarni belgilab bersada, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimida surrogat onalik shartnomasini tartibga soluvchi qonun hujjati bugungi kunda mavjud emas.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga yuzlansak, ko'zimga yaqqol tashlanuvchi holat bu ko'pchilik davlatlar surrogat onalik shartnomalariga nisbatan qattiq talablar o'rnatganligidir. Ushbu talablar shartnoma taraflari va dunyoga kelgan bolaning huquqlari yetarli darajada himoya qilinishini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bir qator mamlakatlar surrogat onalik shartnomalarini tijorat maqsadida tuzish huquqlarini o'z fuqarolariga taqdim etsa ayrim davlatlar ushbu huquqni faqar surrogat onalikka muhtoj shaxslarga yordam sifatida (altruistik) taqdim etish huquqi bilan cheklangan. Ushbu davlatlarga Buyuk Britaniya va Kanadani misol tariqasida keltirishimiz.

Muhokama

Tomonlarning huquq va majburiyatlari nira nechta hisoblanadi va bulardan genetik ota-onalar tibbiy xizmatlar uchun to'lov, surrogat onani moddiy ta'minlash, homiladorlik davrida tibbiy kuzatuvni ta'minlash. O'z o'rnida surrogat onaning ham tibbiy ko'rsatmalarga rioya qilish, sog'lom turmush tarzini yuritish, tug'ilgan bolani topshirish kabi majburiyatlari mavjud.

Surrogat onalik tartibi garchi bir necha o'nlab davlatlarda qonuniy tartibga solingan bo'lsada ammo ushu munosabatlar yuzasidan hozirgi paytga qadar bir necha turli nizolar kelib chiqish holatlari kuzatiladi. Ko'p hollarda surrogat onalik shartnomasi qonuniy tuzilgan yoki tuzilmaganidan qat'y nazar surrogat ona bolani berishdan bosh tortadi yoki aksincha ota-onalar bolani olishdan bosh tortishlari mumkin. Ayni shu turli nizolar samarali hal etilishi uchun surrogat onalik shartnomalari tuzilishi va ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik mavjud bo'lishi zarur.

Qo'shimcha qilib surrogat onalik shartnomasi nafaqat surrogat ona va bolani qabul qiluvchi genetik ota-ona huquqlarini belgilab beradi balki u kelajakda o'sib voyaga yetadigan farzandning ota-onasini bilish, himoyalangan holda voqelikdan xabardor bo'lish ya'ni o'z shaxsi bo'yicha ma'lumot ola-olish huquqi ta'minlanishining ham asosi hisoblanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, surrogat onalik shartnomasi fuqarolik huquqining mustaqil instituti sifatida e'tirof etilishi va alohida tartibga solinishi zarur. O'zbekiston qonunchiligida surrogat onalik munosabatlarini tartibga solishda jiddiy bo'shliqlar mavjud. Xorijiy tajriba genetik ota-onalar, surrogat ona va bolaning huquqlarini muvozanatlashtirilgan himoya qilish zaruratini ko'rsatadi. Muammoni hal etish uchun "Surrogat onalik to'g'risida"gi maxsus qonun qabul qilish, Oila kodeksiga surrogat onalik orqali tug'ilgan bolalarni ro'yxatga olish tartibi to'g'risida qo'shimchalar kiritish, tibbiy standartlar ishlab chiqish, surrogat onalarni tanlash mezonlarini belgilash, davlat nazorati mexanizmini yaratish va oilaviy nizolarni ko'rish uchun maxsus sud palatasini tashkil etish taklif etiladi. Kelajakda transchegaraviy surrogat onalik, yolg'iz shaxslarning huquqlari, embrionlarning huquqiy maqomi va psixologik aspektlarni tadqiq qilish muhim yo'nalishlar hisoblanadi. Surrogat onalik

institutini milliy qonunchilikda to'liq tartibga solish zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob beradi va oila qurish huquqini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 2020. – 512 b.

Ergashev Sh.Z. Oila huquqi: Darslik. – T.: TDYU, 2018. – 320 b.

Rustambekov M.X. Reproduktiv texnologiyalarning huquqiy jihatlari // Huquq va burch jurnali. – Toshkent, 2020. – № 3. – B. 45-52.

Малеина М.Н. Правовое регулирование суррогатного материнства в Российской Федерации // Журнал российского права. – Москва, 2019. – № 8. – С. 78-89.

Пестрикова А.А. Договор суррогатного материнства: гражданско-правовой аспект // Семейное и жилищное право. – Москва, 2018. – № 5. – С. 23-27..

Andrews L., Elster N. Regulating Reproductive Technologies // Journal of Legal Medicine. – USA, 2020. – Vol. 21. – P. 35-58.

Spar D. The Baby Business: How Money, Science and Politics Drive the Commerce of Conception. – Boston: Harvard Business School Press, 2019. – 285 p.

Trimmings K., Beaumont P. International Surrogacy Arrangements: Legal Regulation at the International Level. – Oxford: Hart Publishing, 2018. – 412 p.

European Court of Human Rights. *Mennesson v. France*, Application no. 65192/11. Judgment of 26 June 2014. <https://hudoc.echr.coe.int/>

Fertility and Surrogacy: Legal Issues in Modern Society / Ed. by Smith J., Johnson K. – London: Cambridge University Press, 2021. – 356 p.

Sog'liqni saqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: Adolat, 2021. – 89 b.

INNOVATIVE
ACADEMY